

## YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIR ETUVCHI MA'NAVIY-MAFKURAVIY OMILLAR

**Isomiddinov Sanjarbek Axtamovich**

AndQXAI, Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

[sanjarisomiddinov147@gmail.com](mailto:sanjarisomiddinov147@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada yoshlar masalasining butun dunyo miqqosida dolzarbliji, tarixan bu mavzu ahamiyatli bo'lganligi va kishilik jamiyatining ertangi taqdiri ular qo'lida ekanligi hamda globallashuv asrida yoshlar tarbiyasiga ta'sir qiluvchi ma'naviy-mafkuraviy omillar va ularni bartaraf etish choralari haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, jamiyat, ma'naviyat, mafkura, g'oya, mentalitet, axloq.

**Abstract:** The article talks about the global relevance of the issue of youth, the fact that this topic has historically been important, and that the future fate of human society is in their hands, as well as the spiritual and ideological factors that affect the education of young people in the age of globalization and the measures to eliminate them.

**Key words:** Education, society, spirituality, ideology, idea, mentality, morality.

Ma'lumki, muayyan xalq va jamiyat hayotida ulkan ahamiyat kasb etib, uning taraqqiyot darajasini yangi bosqichga ko'taruvchi g'oya yoki ta'limotlar nisbatan ilgariroq paydo bo'ladi. Mana shu g'oya katta maqsad yo'lidagi o'zgarishlarni ilg'ay oladigan, ko'plarni birlashtira oladigan, insonlar qalbi va ongiga singib, ularning hayotiy maqsadlariga aylanadi. Yana bir tushuncha mavjudki, avvalo insonlar ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, atrofdagi voqeа-hodisalarga munosabati o'zgarsagina ular davlat, jamiyat hayotini ya'ni siyosiy tuzulmalarini hamda ijtimoiy munosabatlarni

o‘zgartira oladilar. Zulm ko‘rgan har qanday xalqning ruhi cho‘kadi, qaddi bukiladi, beli sinadi. Oqibatda u o‘zini ojiz his qilishga majbur bo‘ladi, oqibatda esa tanazzul muqarrar degani. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “Ayniqsa, hozirgi zamonda, dunyodagi ilg‘or xalqlar katta-katta marralar sari intilayotgan bir paytda ma’naviy jihatdan g‘aflatda botib, “uxlab yotishga”, loqayd bo‘lishga hech kimning haqqi yo‘q. Barcha fojialar va muammolar, Vatanga, millatga, kelajakka xiyonat aynan loqaydlikdan boshlanadi”[1]. Xalq ko‘nglidan bu qo‘rquv, ishonchsizlik, tushkunlikni quvib chiqarish uchun esa kuchli g‘oya, asosli bir ta’limot kerak edi. Insonlar psixologiyasi ularning dunyoqarashi va ma’naviyati, madaniyatini belgilashi shubhasiz. Har qanday ma’naviyatdan begonalik, madaniyatsizlik boshqa insonlar psixologiyasida ham illat urug‘ini paydo qilishdek kuchli xavf tug‘diradi. Mana shunday illatu qusurlar yoshlarga ham ta’sir ko‘rsatishi tabiiy.

Har bir tarixiy davrda yoshlar masalasi dolzarb bo‘lgan. Masalan, faylasuf Suqrot ham o‘z zamonasi yoshlaridan hamisha tashvishlanganligini ta’kidlagan edi. Hatto bugun ham rivojlangan davlatlarda ham ichki siyosatning muhim yo‘nalishi sifatida yoshlarga alohida e’tibor qaratayotganligi ko‘rish mumkin. Xususan, Yevropa davlatlari orasida Germaniyada bu masalaga o‘ziga xos yondoshuv bor. Ushbu davlat tajribasi mazmuni yoshlarni jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta’minalash va ularni sog‘lom muhitga ko‘chirishdan iborat. Shu orqali nemis millati va qadriyatlarini asrashni maqsad qiladi. O‘tgan asrning 20- yillariga kelib yoshlar masalasi har qachongidanda dolzarblasti, xuddi shu davrda yoshlar masalasiga bag‘ishlangan qator asarlar yaratila boshlandi. Ingliz olimi Mangeymning “Avlodlar muammosi”, yoki vatandoshimiz Fitratning “Oila yoxud oilani boshqarish tartiblari”[2] asarlari yaqqol misol bo‘la oladi. Buyuk sohibqiron Amir Temur ham o‘z tajribalari asosida «Tuzukot»ni yaratdi va uni farzandlariga, avlodlariga pand-nasihat sifatida meros qildi. Shu orqali avlodlarini baxtli-saodatli bo‘lishini, hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlashini kafolatlashga uringan.

Buyuk mutafakkir, millatimiz fidoyisi, vatandoshimiz Abdulla Avloniy aytganidek: “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”[3]. Darhaqiqat, jamiyat tirik organizm, u tarbiyaga muhtoj. Tarbiyaning barcha ko‘rinishlari ma’naviy, axloqiy, ruhiy, jismoniy, aqliy va huquqiy turlari yaxlit bir tizim sifatida jamiyat mafkuraviy tarbiyasining asoslari hisoblanadi. Ma’naviy-mafkuraviy tarbiya tarkibi har qanday siyosiy qarashlardan, davlat tazyiqlaridan holi va o‘z mustaqil tizimiga ega bo‘lmog‘i darkor. Ayni paytda millat ruhiyatidagi salbiy illatlardan qat’iy voz kechish, mavjud ijobiy, umuminsoniy fazilatlarni yanada chuqurlashtirish, boyitish, ularga yangicha mazmundorlik baxsh etish taqazo etiladi. Xalqimizning milliy xususiyatlari va xarakteri o‘ziga xos bo‘lib, tabiatan qiziqqon, his-hayajonga beriluvchan, o‘ta ta’sirchan, mehribon va oqko‘ngil, zaminimiz ham shunga mos[4].

Hayotiy, sog‘lom mafkura – xalqning milliy o‘zligini anglashidagi eng yuksak holatdir. Mafkura xalqni o‘tmishga, zamonga, kelajakka, milliy va umuminsoniy qadriyatlargacha, o‘zi yashayotgan davlat va jamiyatga munosabatini belgilashda hal qiluvchi omilga aylanadi. Jamiyat a’zolari mafkura yordamidagina o‘zlarining shaxs sifatida jamiyat taraqqiyotida qanday o‘rin tutishlarini hamda ijtimoiy vazifalarini anglab yetadilar. Milliy goya, milliy mafkuraning milliy deb atalishidan ham ayonki, u, avvalo butun millat, xalq, jamiyatning qalbida, ongida shakllanishi zarur.

Davlat va jamiyat taraqqiy etishi uchun yana boshqa bir qator qudratli omillarga, barqaror ichki, tashqi siyosatga, puxta iqtisodiyotga, mustahkam xavfsizlik tizimiga ega bo‘lishi ham shart. Biroq, milliy mafkura taraqqiyotning barcha boshqa imkoniyatlari orasida alohida o‘rin tutishini unutmaslik kerak.

Mafkuraning ijtimoiy-tarixiy va ma’naviy zaruriyatiga e’tiborni kuchaytirish, yoshlar uchun aniq va ravshan, ta’sirchan qo‘llanmalar, darsliklar tayyorlash, ularni amaliyotga tadbiq etish dolzarb muammolardandir. Binobarin, o‘sib kelayotgan

yoshlarning ongiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim kuch bu axborotdir. XXI asr axborot asri deb xalqning ongiga singdirib ulgurdik, biroq uning zararlaridan muhofaza qilishga qiynalib turibmiz. Ayniqsa, internet kabi global tarmoqdan yoshlarni ajratish mumkin emas. Faqat endigi vazifa yoshlarni onglilik sari undab, zararli xurujdan chetlash lozimligini uqtirishdir. Zarur bo'lsa agar «sariq matbuot»ni ham muhim tarbiyalovchi mexanizmga aylantirish, ijtimoiy lashgan maqolardan dolzarb, mohiyatan kuchli mavzularga safarbar qilish mumkin. Televideniya va kinofilmlarni ham alohida mafkuraviy tarbiya vositasi ekanini unutmaslik kerak. Vatanparvarlikning, millatparvarlik, insoniy sadoqat tuyg'ulari targ'ib etilishi yoshlarda ayni insoniy tuyg'ularni mustahkamlaydi.

Yoshlarning mafkuraviy tarbiyasiga ta'sir qiluvchi, aniqroq aytganda aslida shakkantiruvchi omil bu milliy an'analar, odatlardir. Sir emaski, globallashuv kuchaygan bir paytda milliy madaniyatning ajralmas belgisi bo'lgan til, kiyimkechak, marosimlar va odatlarda transformatsiya jarayonlari kuzatilmogda[5]. Yoxud bu jarayondan kafolatlangan millatning, madaniyatning o'zi yo'q. Ba'zan bu o'zgarishlarning tub sabablarini axtarganimizda iqtisodiy integratsiyaning kuchayganiga e'tibor qilamiz. Iqtisodiy omil insonning turmush sharoitini, moliyaviy ahvolini o'zgartirishi mumkin. O'z navbatida yangicha urf-odatlarning paydo bo'lishiga ham olib keladi. Biroq, davr va xalqning sinovidan o'tmagan bunday odatlar na tarbiya kamponenti, na milliy an'ana bo'lmaydi.

Xulosa qilishdan oldin, jahon tarixiga nazar soladigan bo'lsak, yuz yillar mobaynida mafkuraviy-g'oyaviy tarbiya orqali xalqning mentalitetiga, psixologiyasiga singdirilgan umummiliy manfaat juda ko'plab davlatlarning salohiyatini yuksakka ko'tardi. Masalan, inglizlardagi kuchli tadbirkorlik, tashabbuskorlik va tarbiyadagi qattiqko'llik xislati, nemislardagi o'ta mas'uliyatlilik, o'ziga ishonch, yaponlarning millatparvarligi va jamoa manfaatini e'zozlashishi, fransuzlardagi doimo yangilikka va erkin fikrlashga intilish hislari bu xalqlar

yashayotgan mamlakatlarini dunyoning taraqqiy etgan davlatlari darajasiga ko‘tardi. Zotan, Yangi O‘zbekiston yoshlari ham buyuk ishlarga va islohotlarga qodirdirlar.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.-T.: O‘zbekiston,2021.–B. 299.
- 2.Abdurauf Fitrat.Tanlangan asarlar. –T.: Ma’naviyat, 2006. –B. 214-216.
- 3.Abdulla Avloniy.Tanlangan asarlar. –T.: Ma’naviyat, 2008. –B. 133.
4. Islomov Z.M., Sirojiddinov SH.S., O’sarova F.X. Buyuk allomalar ijodida ahillik va bag‘rikenglik g‘oyalari. – T.: JIDU, 2005. – B. 4.
5. Valixonova G. Millatalararo munosabatlarni mustahkamlanishida milliy-madaniy markazlar faoliyati//Madaniyat chorrahalarida/2020, 1-son.